https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Agrobiologiyalar fakulteti, "Ekalogiya va atrof muhitni muhofazasi" 25-19 guruh 1kurs talabasi
Jo'rayeva Ziyoda

Tel nomer: +998888766687 tg\@jurayevam_o37

ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada hozirgi davrda ekalogiyaga bo'lgan e'tiborning ortish sabablari, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishining asosiy omillari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, havoni tozalash, suv resurslarini tejash, daraxtlar ekish, yashil hududlarni kengaytirish va ekolik ongni oshirish kabi chora-tadbirlar batafsil yoritildi. Shuningdek, ekologik muammolarni bartaraf etishda davlat siyosati, jamoatchilik va har bir fuqaroning ro'li ham ko'rib chiqildi, ularning barqaror rivojlanishiga ta'siri ilmiy asosda izohlandi.

Аннотация: В данной научной статье на основе научных источников анализируются причины возросшего внимания к экологии в настоящее время, основные факторы изменения климата и загрязнения окружающей среды. Также подробно рассматриваются такие меры, как очистка воздуха, водосбережение, посадка деревьев, расширение зеленых зон и повышение экологической осведомленности. Рассматривается роль государственной политики, общественности и каждого гражданина в решении экологических проблем, а также объясняется их влияние на устойчивое развитие на научной основе.

Abstract: This scientific article analyzes the reasons for the increased attention to ecology in the current period, the main factors of climate change and environmental pollution based on scientific sources. Also, measures such as air purification, water conservation, tree planting, expansion of green areas and raising

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

environmental awareness were discussed in detail. The role of state policy, the public and each citizen in eliminating environmental problems was also considered, and their impact on sustainable development was explained on a scientific basis.

Kalit so'zlar: Ekalogiya, iqlim o'zgarishi, havo ifloslanishi, suv resurslari, barqaror rivojlanish va yashil hududlar

Ключевые слова: Экология, изменение климата, загрязнение воздуха, водные ресурсы, устойчивое развитие и зеленые зоны.

Keywords: Ecology, climate change, air pollution, water resources, sustainable development and green areas

Kirish

Ekalogiya tirik organizmlar va ularni o'rab turgan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan bo'lib, hozirgi davrda global miqyosdagi eng dolzarb yo'nalishlarning biriga aylangan. 21-asrda sanoatlashuvning jadallashuvi, urbanizatsiya jarayonining kengayishi va aholining keskin ko'payishi tabiatga tabiatga bo'lgan antropogen bosimni kuchaytiradi. Natijada tabiiy resurslardan me'yordan ortiq foydalanish, ekologik muvozanatning buzilishi va iqlim o'zgarishi kabi muammolar yuzaga keladi. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, yer va suv resurslarining kamayishi nafaqat tabiat, balki inson salomatligi va iqtisodiy barqarorlik uchun ham jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu sababli ekologik muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularning oldini olish yo'llarini ishlab chiqarish dolzarb vazifaga aylangan.

Asosiy qism:

Nima sababdan hozirgi davrda ekalogiyaga etibor kuchaymoqda?

So'ngi yillarda ekalogiyaga bo'lgan e'tiborning ortishi iqlim o'zgarishining yaqqol oqibatlari bilan bevosita bog'liq. Global haroratning ortishi va quruq havoning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026


sovushi, qurg'oqchilikning kuchayishi, suv tanqisligi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Ilmiy tadqiqotlar havo ifloslanishi bilan bog'liq kasalliklar soni yil sayin ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ularning tez suratlarda kamayib borayotgani barqaror rivojlanish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu bois davlatlar ekologik siyosatni kuchaytirib, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqmoqda.

Iqlim va atrof-muhit isloslanishining asosiy sabablari

Atrof-muhit ifloslanishining asosiy sababi insonning xo'jalik faoliyati hisoblanadi. Fosil yoqilg'ilarini yoqish, sanoat korxonalarining chiqindilar va transport vositalari atmosferaga katta miqdorda zararli gazlar chiqaradi. O'rmonlarning kesilishi esa karbonat angidridni yutish imkoniyatini kamaytiradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'it va pestitsidlarning me'yoridan ortiq foydalanish suv va tuproq ifloslanishiga olib kelmoqda. Urbanizatsiyaning ko'payishi va transportlarning ko'payishi havo sifatining yomonlashishiga, shuningdek shovqin va vizuval ifloslanishning kuchayishiga sabab bo'ladi. Energiya ishlab chiqarishning samarali bo'lmagan tizimlari va chiqindilarning noto'g'ri utilizatsiyasi ham ekologik muvozanatni buzishda muhim ro'l o'ynaydi. Iqlim o'zgarishi esa asosan karbonat angidrid, metan va boshqa issiqxona gazlarining ortiqcha miqdorda atmosferaga chiqishi bilan bog'lik.

Havoni tozalashda daraxt ekishning ahamiyati

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



-Chinor, eman, zarang, terak kabi bargli daraxtlar chang va zararli gazlarni yutadi.

-Ignabargli daraxtlar- archa va qarag'ay yil davomida havoni tozalaydi.

-Shaharlarda yashil hududlarni kengaytirish shu bilan birga o'rmonlarni yaratilishi havo sifatini tozalaydi.

-Daraxt ekish kampaniyalari ekologik ongni oshirishga xizmat qiladi.

-Daraxtlarning joylashuvi va turini rejalashtirish orqali shaharlarda mikroiqlimni yaxshilashi mumkin.

Suv resurslarini tejash yo'llari

Suv resurslarini tejash bugungi kunda ekologik barqarorlikni ta'minlashning eng muhim shartlaridan biridir. Aholi sonining ortishi, iqlim o'zgarishiga va qurg'oqchilikning kuchayishi chuchuk suv zaxiralarining kamayishiga olib kelmoqda.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

-Qishloq xo'jaligida tomchilab va yomg'irlatib sug'orish texnologiyalaridan foydalanish suv sarfini bir necha barobarga kamaytiradi hamda hosildorlikni oshiradi.

-Aholi darajasida suvni tejovchi kranlar, dush tizimlari va maishiy texnikalardan foydalanish suv sarfini sezilarli darajada qisqartirish mumkin.

-Nosoz quvurlar va eskirgan suv tarmoqlarini ta'mirlash orqali katta miqdordai suv yo'qotishining oldi olinadi.

-Yomg'ir va qor suvlarini yig'ish hamda ularni texnik ehtiyojlar uchun qayta ishlatishsuvdan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

-Sanoat korxonalarida yopiq suv aylanish tizimlarini joriy etish ishlab chiqilgan jarayonida suvdan takroran foydalanish imkonini beradi.

-Aholi o'rtasida suvni tejash bo'yicha ekologik targ'ibot va ta'lim ishlarini kuchaytirish suv resurslarini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil hududlarni kengaytirish

-Ekologik bog'lar va himoya o'rmonlarini barpo etish.

-Shahar iqlimini yumshatish va havoni tozalash

-Shovqin darajasini kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash

-Barqaror rivojlanish uchun jamiyatni ekologik madaniyat bilan boyitish.

-yashil hududlarni rejalashtirish va ularda biologic xilma-xillikni saqlash.

Bugungi ekologik inqirozning global tasviri

Yangi BMT Global Environment Outlook (Geo) hisobiga ko'ra:

-Aholi ko'payishi va energiya talabi sababli atrof-muhitga zarar yetkazish darajasi oshgan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

-Oziq-ovqat va fosil yoqilg'i ishlab chiqarish jarayonlari har soatda milliardlab dollarlik zarar yetkazmoqda.

- Bu o'zgarishlar oziq-ovqat va suv xavfsizligi, jamoat sog'lig'I va iqtisodiy barqarorlikni tahdid qilmoqda.

Ekologik muammolarni yengish yo'llari

a) Qayta tiklanadigan energiya manbalari:

Quyosh, shamol va gidroenergiya kabi manbalar ifloslanishini kamaytirishga yordam beradi. Ular uglevod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi

b) Xalqaro hamkorlik va huquqiy mexanizmlar:

Xalqaro kelishuvlar (masalan, Parij kelishuvi) davlatlararo hamkorlikni mustahkamlaydi vaiqlim maqsadlariga erishishga yordam beradi.

c) Mahaliy darajada chidamlilik

Qishloq xo'jaligida barqaror amaliyotlar, transportda elektromobillar, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi amaliy choralar ekologik holatni yaxshilaydi.

Mualliflik g'oyasi:

Mening fikrimcha, ekologiyani boyitishning eng mukammal yo'li-bu ekologik ongni shaklantirish, yashil infratuzilmani rivojlantirish va har bir shaxsning ekologik mas'uliyatini oshirishdir**. Iqlimni ifloslantiruvchi omillardan biri bo'lgan hazonni yoqib yuborish havoni anchagina ifloslantirishga olib keladi va buni oldinini olish maqsadida hazonlarni yoqib emas yerga ko'mishni tavsiya qilaman. Shunda nafaqat iqlimni balki yerni ham foydaki o'gitlarga boyitamiz.** Agar har bir inson tabiatni asrashni o'zining kundalik hayot tarziga aylantirsa, ekologik muamoolarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ekologik muammolarni bartaraf etish va iqlim ifloslanishini kamaytirish insonlarga bog'liq ekan. Chunki ona tabiat bizni qo'limizda shunday ekan havoni asrash suv resurslarini tejash daraxtlarni avaylash va uni asrab-avaylasb kelajak avlodga qoldirish bizning eng asosiy mas'uliyatimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Abdullayev A.A. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. -Toshkent: O'qituvchi, 2018

[2] Qodirov B.Q Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik. – Toshkent: Fan, 2020

[3] Karimov I.A tabiat va inson: uyg'unlik masalalari. -Toshkent: Ma'naviyat, 2016

[4] O'zbekiston Respublikasining Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Ekologik holat bo'yicha ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2022

[5] World Health Organization. Air Pollution and Health

[6] IPCC. Climate Change: Synthesis report.